

## “DURUSUL BALOG‘AT” ASARINING TARKIBIY TUZILISHI VA ASARDA MUMTOZ ARAB TILI ILMINING YORITILISHI

**Allaberganov Allabergan**

*Imom Buxoriy nomidagi*

*Toshkent islom instituti o‘qituvchisi*

“Durusul balog‘at” kitobi Alloma Hifniy Nosif, alloma Muhammad Diyab, alloma Mustafo Tommum, alloma Muhammad Solihlar ta’lif qilgan muhim va mashhur kitoblardan hisoblanadi. Aynan mana shu kitob balog‘at fanini o‘qitish bo‘yicha dunyodagi eng mashhur kitoblardan hisoblanadi. Bu zotlardan oldin ham bir nechta buyuk allomalar balog‘at ilmi borasida kitoblar yozishgan. Jumladan, Ibn Mo‘tazz, Qudoma ibn Ja‘far, Abu Hilol al-Askariy, Imom Zamaxshariy, Abdulqohir Jurjoniyy va boshqalar.

Bu ilm Abbosiylarning davrida alohida ajralib chiqib, boblarga bo‘lindi va batafsil yoritildi. Bu ilmga birinchi bo‘lib shayxul-balog‘a taxallusini olgan “Daloil al-e‘joz” va “Asror al-balog‘a” asarlarining muallifi Abdulqohir Jurjoniyy e‘tibor qaratdilar. Bu zot balog‘at qoidalarini o‘rnatib, ularni boblarga bo‘lgan, so‘ng ularni chiroyli qilib tartiblagan va bu borada yuqorida zikri o‘tgan 2 asarni yozganlar. 20-asrda ta’lif qilingan “Durusul balog‘a” asari esa yozilish uslubi, mavzularni tartiblash va ketma-ketligi bilan boshqa asarlardan farq qiladi.

Kitobning shorihlaridan bo‘lgan Muhammad Fazl Haq Romfuriy quyidagilarni aytadilar:

Barcha narsadan behojat, va ularning yaratuvchisi bo‘lgan Alloh taolaga bandalardan eng muhtoji bo‘lgan Abul Afzol Muhammad fazl Haq Romfuriy (Alloh taolo qabrlarini go‘zal, o‘zlarini panohda qilsin) aytadilar: “Barcha ilmlarda xususan arab tili ilmlari va adabiyotida ulug‘ligi bo‘lgan bir jamoa kishilarining yozgan “Durusul balog‘at” kitobini Misrda joylashgan “Azhar” universiteti talabalariga darslik sifatida o‘qitishlikni o‘ylab ko‘rganimda bu kitobni chuqur taammul bilan o‘rganib chiqib bu kitobni qisqa bo‘lishligiga qaramasdan balog‘at ilmi qoida va asllarini mufassal o‘z ichiga olganligini, masalalari ko‘p bo‘lishiga qaramasdan tortishuv va ortiqchalikdan holiligini va mutaaxxir olimlarning kitoblarida bo‘lmagan go‘zal tartibni ko‘rdim. Hozirgi ulamolarni kitoblarini ko‘p o‘qiydigan kishi buni albatta biladi. Mana shu sababli ham bu kitob juda mashhur bo‘ldi va turli davlatlarda shon-shuhrat qozondi”.

Bu jumlar ta’lif sohiblarining kitob yozishda o‘z ilmiy uslubi bor ekanligini ko‘rsatadi. Kitobda mualliflar faqatgina lug‘aviy fikrlarni keltirish bilangina cheklanmay, balki Qur’oni karim oyatlari va ko‘p shoirlarning she’rlaridan ham misollar keltiradi.

Balog‘at ilmini o‘rganishda eng avvalgi manba bu “Durusul balog‘at” kitobi hisoblanadi, chunki mualliflar mavzularni bayon qilishda qisqalikni tanlabgina qolmay

balogʻat ilmiga tegishli barcha mavzular haqida kerakli va boshlangʻich maʼlumotlarni berganlar. Bu asar oʻzidan keyingi kitoblarni oʻqishda debocha vazifasini bajaradi. Asar sohiblari oʻz asarida mazkur arabiy ilmlarni boshqa asarlardan farq qiladigan uslubda asoslab, tartiblab bergan. Avvalo kirish bilan boshlab, soʻng baʼzi lugʻat masalalariga toʻxtalganlar, soʻngra balogʻatning uchta ilmi (maʼoniy, bayon, badi) haqida maʼlumot beradilar. Bu uslubga koʻra asarda mavzular izchillikni yoʻqotmagan, barchasi bir-birini toʻldirib kelgan. Bu esa oʻquvchining bu ilmlarni osonlik bilan oʻrganishiga yordam beradi, albatta bu oʻquvchining fahm-u farosati va iqtidoriga bogʻliq. Bu ham asarning mukammal yozilishida muhim omil hisoblanadi.

Mualliflar kitobda maʼoniy va bayon ilmini boshlab maʼoniy bayondan muqaddam keltirganlarlar. Soʻngra tashbeh, majoz(metafora) va uning turlari, kinoya(metonimiya), badeʼ, hamda ularning xususiyatlari haqida batafsil toʻxtalib oʻtadilar. Soʻngra muhassinot, yaʼni gapni chiroyli qiladigan omillar va uning maʼnaviy va lafziy turlari haqida yozadilar. Asar shu tarzda xotimaga yetadi.

Asarning maxsus uslubiga kelsak, u arab tiliga oid bilimlarni tartiblashda, har bir ilm mavzularini tegishli tartiblar asosida keltirishidir. Ushbu asar oʻzidan oldingi asarlar orasida yagonadir. Asar sohiblari asarni 3 bahsga ajratgan. Avval grammatikaga yaqin boʻlgani uchun ilmi maʼoniy keltiradilar. Undan keyin ilmi bayon bahsini zikr qiladi. Mualliflarning fikricha, ilmi bayon ilmi maʼoniyning bir shoxchasi hisoblanadi. Keyin esa ilmi maʼoniy had va istidlolga aloqador ekanligiga ishora qilib, “fasohat”, “muhassinot” (gapni chiroyli qiluvchi) larni qoʻshimcha qiladi. Bu ham muallifning mavzularni tartiblashda va ular haqida bahs yuritishda oʻziga xos bir uslubi bor ekanini koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Mualliflarning maʼoniy va bayon ilmida qoʻllagan uslubi yangi uslub boʻlib, mavzularni qism va boblarga boʻlishda boshqa ulamolardan farq qiladi. Asar sohiblari maʼoniy va bayon ilmini yozishda Jurjoniyning “Asror al-balogʻa” nomli kitobidan foydalangan. Asar sohiblarining maʼoniy va bayon ilmini tartib berishdagi uslubi keyingi balogʻat olimlari uchun ham uslub boʻlib davom etmoqda. Mutaqaddim ulamolardan Badriddin ibn Molik, Qazviniy, Subkiy, Taftazoniy, Asomiddin Isfaroiniy va boshqalar asarlariga mana shu uslubga koʻra tartib berganlar va bu uslub yangi yozilgan balogʻat kitoblarida ham davom etmoqda. Mana shundan Asar sohiblarining keyingi balogʻat olimlariga taʼsiri qay darajada ekanligi bilinadi.

“Durusul balogʻat” kitobining fasohat va balogʻat qismlari. Fasohat va balogʻat faniga kirish: Fasohat soʻzi lugʻatda “bayon boʻlish”, “koʻrinish” maʼnosini anglatadi, masalan arablar bola tilga kira boshlasa:

“أفصح الصَّيِّ فِي مَنْطِقِهِ إِذَا بَانَ وَظَهَرَ كَلَامُهُ”

Qachonki bola soʻzlaganda soʻzlari ochiq-ravshan boʻlsa “Bola oʻz soʻzida fasohatli boʻldi”, -deyishar ekan.

Itilohda esa Fasohat ilmi uch qismga boʻlinadi, va ular quyidagilar:

1. Kalima (so'z) fasohati;
2. Kalom (gap, jumla) fasohati;
3. Mutakallim (so'zlaguvchi, gapiruvchi) fasohati.

Kalima (so'z) fasohatli bo'lishi uchun, u uch narsadan holi, ya'ni salomat bo'lmoqligi shart qilinadi:

1. Tanafurul huruf<sup>19</sup> (Harflar qochishi)dan Masalan: «أَطَشُ» (qattiq tepalik) so'zi kabi. Bu so'zning maxrajleri<sup>20</sup> bir biriga yaqin bo'lgani sababli tilga og'irlik qiladi, ya'ni talafuz qilish qiyin bo'ladi.

2. Muxolifatul qiyos<sup>21</sup> (Qiyos qoidalariga xilof bo'lishdan). Bunga misol Mutanabbiy she'ridagi “بوق” so'zining ko'pligi “بوقات” (nog'oraga o'xshash cholg'u asbobi) kalimasidir:

فان يك بعض الناس سيفاً لدولة ففى الناس بوقات لها، وطبول

Ushbu baytda بوقات lafzi qoidaga xilofdir, chunki bu lafzning birlik siyg'asi (mufradi) بوق bo'lib, باب ابواب kabi ابواق vaznida kelishi kerak edi. Shoir she'r vazniga rioya qilish uchun “بوقات” so'zini buzib keltirdi va natijada u qiyos qoidalariga zid bo'lib qoldi.

3. G'arib<sup>22</sup> ( ma'nosi tshunarsiz) so'zlardan. Kalima o'z ma'nosini ochiq bildirmasligi sabablari:

1- Sabab. Kalimaning sof arab tilidan emasligidir, masalan: تكأكا so'zi sof arabtilidan emas, bu so'z aslida اجتماع –jamlanish ma'nosidadir.

2-Sabab. Kalimani biror ishorasiz umuman boshqa ma'noda ishlatish, uni aniqlashda bahs kerak bo'ladi, masalan: المسرح so'zini shoir mahbubasini go'zalligini ta'riflashda ishlatgan. Lekin bu kalima tuya kabi hayvonlarni yuganlangan holatiga aytiladi va uni insonga nisbatan ishlatish o'rinli hisoblanmaydi.

Kalom (gap, jumla) fasohatli bo'lishi uchun, u ham uch narsadan holi, ya'ni salomat bo'lmoqligi shart qilinadi:

1. tanafurul kalimat<sup>23</sup> (Ja'm bo'lgan holatda kalimalarning bir biriga mos tushmasligidan).

2. dofut talif<sup>24</sup> (Gap tuzishda xatolikka yo'l qo'yishdan).

3. Ta'qid<sup>25</sup> (Ma'nolarni ochiq-oydin tushunib bo'lmasligidan). Ta'kid 2 xil bo'ladi: lafziy va ma'naviy.

<sup>19</sup> Harflar qochishi harflarning biri- biri bilan mos kelmasligi, chiqisha olmasligi harf maxrajleri yaqin yoki bir maxrajdan bo'lgani tufayli yuzaga keladi va nutq qilishda qiyinchilik tug'diradi.

<sup>20</sup> harf tovushlarining chiqadigan o'rni.

<sup>21</sup> Kalimaning qiyos qoidalariga xilof bo'lishi – so'zning sarf(arab tili) qoidalariga zid bo'lishidir. Sababi arab kalimalarida vazni ma'nolarini aniq qilish muhim hisoblanadi.

<sup>22</sup> G'arib so'zi lug'atda yolg'iz, kamyob ma'nolarini anglatadi. Istelohda esa ma'noga ochiq dalolat qilmaslikni bildiradi.

<sup>23</sup> Ja'm bo'lgan holatda kalimalarning bir biriga mos kelmasligi kalom uchun sifat bo'lib, u nutq qilinganda tilga og'ir, talafuz uchun qiyin bo'lishidir.

<sup>24</sup> Gap tuzishda xatolikka yo'l qo'yish ya'ni kalomning mashhur nahv qoidalariga zid bo'lgan holatda joriy bo'lishi tushiniladi, xuddi lafzdan oldin zamirni zikr qilinishi kabi.

<sup>25</sup> Ma'nolarni ochiq-oydin tushunib bo'lmasligi ya'ni gapni “tugun” kabi bo'lib qolishi, murod qilingan ma'noga dalolat qilishining o'ta maxfiy bo'lishidir.

1. Lafziy ta'kid- gapning nazmi yoki tarkibidagi illat, ya'ni taqdim (ilgari keltirish), ta'xir (keyinroq keltirish), fasl (ajratish), xazf (olib tashlash) va shu kabilar sabab ma'nosini tushunishning qiyinligidir.

Ta'qid al- lafziy oldindan biror narsani aytib qo'yish kabi bo'ladi, bunga misol:

جفخت، وهم لا يجفخون بها بهم شيم على الحساب الأغر دلائل

:aslida esa:

جفخت بهم شيم دلائل على الحساب الأغر، وهم لا يجفخون بها

bo'lishi kerak edi.

2. Ma'naviy ta'kid majoz va kinoya lafzlari tufayli, u bilan murod qilingan lafzni tushunish qiyinligidir. Masalan, sen aytasanki:

نشر الملك سنته في المدينة، مريدا جواسيسه، والصواب نشر عيونه

deb, va shoir Abbos ibn Ahnafning ushbu so'zlari:

سأطلب بعد الدار عنكم لتقربوا و تسكب عيناى الدموع لتجمدا

*Tarjimasi: Uzoqlarga ketaman siz yaqinrog' bo'ling deb,*

*Selday yoshlar oqizsin ko'zlarim ham qurusin deb.,*

kabi tushunishga qiyin lafzlar ishlatilgan bo'ladi.

Mutakallimning<sup>26</sup> fasohati o'zini kalomida qanday maqsad bo'lishidan qat'iy nazar balog'atli kalom bilan ta'bir qilishga qodir bo'lishidir.

### Ilmi maoniy.

Maoniy ilmi-muqtazoi holga muvofiq bo'lgan arab lafzlarini holatlarini o'rganadigan ilmdir. Chunki so'zlarning o'rinlari turlicha va suratlari o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, Alloh taoloning:

﴿وأنا لا تدري أشر أريد بمن في الأرض أم أراد بهم ربهم رشدا﴾

«Va albatta, biz, yer yuzidagilarga yomonlik iroda qilindimi yoki Robbilar ularga rushdni iroda qildimi, bilmasmiz»<sup>27</sup> oyatida "am" lafzi kelishi bilan so'zlar bir-biriga muxolif bo'lib qoldi. Chunki Alloh taologa yomonlik nisbatini berib bo'lmaydi.

### Birinchi bob: Xabar va insho.

Har bir kalom xabar yoki jumlai inshoiyadan iborat bo'ladi. Xabarda aytuvchi so'zidan so'ng rost so'zlagan yoki yolg'on so'zlagan ham deb tushinish mumkin,

علي مقيم va سافر محمد kabi.

Inshoda esa xabari sodiq bilan voqe' muvofiq bo'lishi kerak. Har bir jumla ikki rukndan iborat bo'ladi:

1) Mahkumun alayh

2) Mahkumun bihi

Musnadul-ilayh muftado, foil va noibi kabi bo'ladi.

**Xabar:** Xabar fe'liy yoki ismiy jumla bo'ladi<sup>28</sup>.

<sup>26</sup> Notiq.

<sup>27</sup> Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur. –T.: TIU, 2004. -B. 357.

<sup>28</sup> Ya'ni xabar jumlai ismiy va jumlai fe'liy bo'ladi.

Jumlai fe'liya deb ish-xarakatni maxsus zamonda ma'nosini muxtasarlikka binoan ifodalashga aytiladi. Gohida fe'l muzore' bo'lganida bardavomlilikni qayta- qayta hujjat bilan ifodalaydi, بعثوا الي عريفهم يتوسم kabi.

Jumlai ismiya, musnadni musnadun ilayhga faqatgina sobit ekanini anglatish uchun xoslangandir, masalan: الشمس مضيئة kabi. Gohida, agar uning xabarida fe'l kelmasa, xabar bardavomlilikni hujjatlar bilan ifodalab keladi, masalan:

العلم نافع kabi.

### 1. Xabardagi asliy qoida.

Jumla o'z ichiga olgan, aytiladigan hukmni muxotobga ifodalashdir, masalan: “Amr hozir bo'ldi”.

2. Mutakallimni bilishini ifodalash uchun, masalan: “Sen kecha hozir bo'lding”

- Hukmni bilish “Foidatul xabar” deyiladi.
- Mutakallimni bilishini bilish esa “Lozimul foida” deb ataladi.

Gohida xabar boshqa maqsadlarni ko'zlab ham aytiladi:

1. Rahmni keltirish uchun.

Qur'onda kelgan Muso (a.s.) so'zlari kabi:

فقال رب اني لما انزلت الي من خير فقير<sup>29</sup>

2. Zaiflikni ifodalash uchun.

3. Hasrat, afsusni ifodalash uchun.

4. Kelgan narsadan xursandlikni va ketgan narsani malomat qilish uchun.

5. Xursandchilikni ifodalash uchun.

6. Gunohkor, toyiladigan odamga tanbeh uchun.

### Xabarning turlari:

1. Ibtidoiy<sup>30</sup>

Agar eshituvchi zehni hukmdan (yengillikni bilishdan) holi bo'lganda ta'kiddan ajratilgan holatda xabarni aytish lozim bo'ladi, masalan: Sening akang keluvchidir.

2. Talabiy<sup>31</sup> (*Misol: Sening akang albatta keluvchidir.*)

3. Inkoriy<sup>32</sup>

### Insho. Insho 2 xil bo'ladi:

1. Talabiy<sup>33</sup>.

2. G'oyri talabiy.

Talabiy jumla 5 narsada bo'ladi:

1. Amr

2. Nahiy

3. Istifhom

<sup>29</sup> Qur'oni karim.Madinai munavvara. Qasos surasi 24-oyat. B.388

<sup>30</sup> Qachoniki xabar beruvchining maqsadi muxotobga foyda yetkazish bo'lsa, behudalikdan saqlanish uchun hojat miqdoriga ko'ra kalomni qisqartirish lozim bo'ladi.

<sup>31</sup> Agar eshituvchi xabarni hukmini bilishlikni talab qiluvchi bo'lsa, o'sha hukmda shubhalanayotgan bo'lsa uni ta'kidlash yaxshi bo'ladi.

<sup>32</sup> Agar eshituvchi inkor qilsa, inkor darajasi miqdoriga qarab ta'kid ko'paytiriladi.

<sup>33</sup> Talab vaqtida hosil bo'lmaydigan matlubni chaqiradigan narsadir, g'oyri talabiy esa unday emas.

4. Tamanniy (orzu)

5. Nido.

**Amr**<sup>34</sup>. Amrning to'rtta siyg'asi mavjud:

1) Amr fe'li

2) Muzore' fe'lga yopishib keladigan "amr bo lom"

3) Amr ma'nosidagi ismi fe'l

4) Amr fe'lidan noib bo'lgan masdar.

Gohida kalomning tushuniladigan mazmuniga ko'ra va holatning taqozosiga ko'ra amr fe'li yuqorida o'tgan to'rt siyg'adagi ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chadi. Ular quyidagilar:

1. Duo.

2. O'zi bilan tengdosh odamga iltimos qilish.

3. Ushalmas orzu ma'nosiga.

4. Yo'l ko'rsatish.

5. Tahdid.

6. Ojiz qoldirish

6. Xorlash.

7. Mubhamlikni ifodalash.

8. Fazlu- marxamatni minnati.

9. Tenglashtirish.

10. Hurmat uchun

11. Ixtiyor ma'nosiga ko'chadi.

**Nahiy**<sup>35</sup>. Nahiyning bitta siyg'asi bor: U Muzore' bilan birga keladigan "لا" nafiidir.

Ba'zida nahiy fe'li ham jumlaning siyoqiga ko'ra o'zining asliy ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chadi:

1. Duo;

2. O'z tengiga iltimos;

3. Tahdid;

4. Yo'l ko'rsatish;

5. Umidsizlantirish uchun;

6. Oqibat bayoni uchun ham keladi.

**Istifhom**<sup>36</sup>. Uning vositalari quyidagilar:

هل, ما, من, متى, ايان, كيف, اين, انى, كم, اي, ء

1. "ء" hamza- tasdiq yoki tasavvurning<sup>37</sup> talabi uchun keladi. masalan: Safar qiluvchi Aliymi yoki Xolid?

<sup>34</sup> Oliy turish vajhiga ko'ra, talab qilinadigan talabiy fe'ldir.

<sup>35</sup> Oliylikni ko'rinishiga ko'ra fe'dan tiyilishni talab qiladi.

<sup>36</sup> Bir narsani ilmiy talab qilishlik hisoblanadi.

<sup>37</sup> Yolg'iz narsani aynan o'zini idrok qilish tasavvur deyiladi.

Ushbu jumladan ularning biri safar qilgani tushunilyapti. Lekin talab qiluvchi aniq emas shuning uchun aniq javob beriladi.

Tasdiq- idrok qilish nisbati bo'lib, agar so'rovchi sendan "Ali safar qildimi?" deb so'rasa, sen "ha" yoki "yo'q" deb javob berasan. So'raluvchi narsa hamzaga yaqin turgani bo'ladi "أ" dan keyin zikri kelgani esa u bilan "muodil" teng bo'ladi. Va "muttasiliy" deb nomlanadi. Hamzadan keyin: Musnadun ilayh, musnad, hol, zarf va hokazolar so'rashi mumkin. Tasdiqiy kalomda so'raluvchiga nisbat beriladi. Va u "بلى" ma'nosida bo'ladi.

2. "هل" faqat tasdiq uchundir. Masalan: "Do'sting keldimi?" desa, javob "ha" yoki "yo'q" bo'ladi. Shuning uchun muodilning zikrini u bilan zikr qilish mumkin emas, ya'ni ikkita teng narsani. "هل" ikki xildir:

1. Oddiy<sup>38</sup>.

2. Murakkab<sup>39</sup>

3. "ما" – bir ismni sharxlash uchun keladi, yoki musamanni haqiqatini so'rash uchun yoki "ما" bilan zikr qilganayotgan narsani xolatini bildirish uchun keladi. Masalan:

4. "من"- aqillilarni tayin qilishni talab qilish uchun keladi. Masalan:

5. "متى"- o'tgan yoki kelajak zamoni tayin qilish uchun keladi. Masalan:

6. "ايان"- xossatan kelasi zamoni tayin qilishni talab qilish uchun keladi. U "qo'rqitish" o'rinlarida keladi.

7. "كيف"- xolatni tayin qilish uchun.

8. "اين"- makonni tayin qilish uchun.

9. "انى" – 3 ta ma'nosi bor: "كيف", "اين", "متى"

10. "كم"- noaniq sonni aniqlash uchun keladi.

11. "اي"- ummumlashgan ikki ishdan birini ajratish uchun keladi. U bilan zamon, makon, hol, adad, oqil kabilarga nisbatan ishlatiladi.

لى - yana unga muzof bo'ladiganning taqozosiga ko'ra undan boshqa ma'nolarga ham ko'chadi (kalomning siyoqiga qarab). Ular quyidagilar:

1. Tenglashtirish

2. Nafiy (bir ishni inkori uchun)

3. Inkori

4. Amr

5. Nahy (qaytarish talabi)

6. Qiziqtirish

7. Ulug'lash

8. Tahqirlash

9. Ustidan kulish

10. Taajub

11. Zalolatdan ogohlantirish

<sup>38</sup> Agar istifhom bir narsani o'zini mavjudligi u bilan birga so'ralsa zikr qilinadi.

<sup>39</sup> Murakkab- agar "هل" istifhom u bilan bir narsadan boshqa narsani topilishi haqida so'ralsa zikr qilinadi.

12. Qo'rqitish o'rinlarida keladi.

**Tamanniy<sup>40</sup>.**

Agar hosil bo'lishi mumkin bo'lgan narsa bo'lsa uni kutishlik "Umid" deyiladi. U "عسى" va "العل" bilan ifoda qilinadi.

Tamanniyning 4 siyg'asi bor: 1- asliy "ليت" va 3 tasi g'oyri asliy "هل", "لو", "العل". Ushbu 4 siyg'a uning javobiga kelayotgan muzore'ni nasb qiladi.

**Nido<sup>41</sup>.** Nidoning 8 vositasi bor:

"ء" (Hamza)

1. اي
2. يا
3. آ
4. ايا
5. ميا
6. وآ
7. ووا

Gohida uzoqdagi odam yaqindagi odamning o'rniga tushadi. Nido harflari bilan hamza va اي mutakallimni zehnida mustahkam o'rnashganiga ishora uchun ham ishlatiladi.

Gohida yaqindagi odam uzoqdagi odam o'rnida keladi.

Munodo harflari sha'nni ulug'lash, darajani balandligiga, mutakallimning g'ofilligiga ham dalolat qilishi mumkin.

Gohida nido harflari o'z asliy ma'nosidan boshqa ma'noga qarinalar bilan ishora qilib keladi:

1. Qiziqtirish
2. Zajr (to'sish, to'xtatish)
3. Taxyir (hayrat) va tazjir (siqilish)
4. Hasrat va tavajje (og'rinish)
5. Tazkir (eslash) uchun.

G'oyri talabiy taajjub-qasam, aqd siyg'alarida va boshqalarda keladi. Inshoning turi bo'lgan "g'oyri talabiy", ma'oni bahslarida o'rganilmaydi.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur.- T.: TIU, 2004y.
2. Sharifov Zokirjon. Balog'at fanidan o'quv qo'llanma. Ilmi bayon va bade' qismlari -T.: Movarounnahr, 2014 y.

<sup>40</sup> Yaxshi ko'rilgan narsani hosil bo'lishi umid qilinmaydigan yoki bilishlikni iloji yo'q yoki voqe'likdan uzoq bo'lganligi sababidan hosil bo'ladi.

<sup>41</sup> "ادعو" fe'li o'rniga kelib oldini o'chirishni talab qiladigan noib harfidir.



3. Mualliflar guruhi. An-na'im. -T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003 y.

4. Murtazoyeva T., Rustamova S., Sadriddinov A. Ahmad al-Qalqashandiyning Balog'at ilmi asoslari haqidagi fikri.// TIU ilmiy-tahliliy axboroti. – Toshkent. 2006 y.